# XALQ DEPUTATLARI FORISH TUMANI KENGASHINING

# Q A R O R I

2026-yil 13-may VII-21-48-3-53-K/26 Forish tumani

**Forish tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha to‘lov tariflarini tasdiqlash to‘g‘risidagi**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ387-son qarorining 8-bandi (a)-qismida 2026-yil 1-yanvardan boshlab Obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan tuman (shahar)lar markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatishga ruxsat berilishi, bunda chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatganlik bo‘yicha tariflar tuman (shahar)lar hokimliklari tomonidan Xalq deputatlari tuman (shahar)lar Kengashlariga ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun kiritilishi, shuningdek, tuman markaziy ko‘chalaridagi qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq xizmatlar sifatidan to‘liq qoniqishini va tadbirkorlar uchun jozibadorligini ta’minlash, hosil bo‘layotgan chiqindilarni qayta ishlash darajasini oshirish, chiqindilar to‘planishining oldini olish, ekologik hamda sanitariya holatini yanada yaxshilash maqsadida va tuman hokimligining 2026-yil 27-martdagi 03-58-son Xalq deputatlari Forish tuman Kengashi raisiga yo‘llagan xati yuzasidan, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

## QAROR QILADI:

1. Forish tuman obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha to‘lov tariflari yuzasidan tuman Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i F.Amirovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi (Q.Xidirov), tuman Sog‘liqni saqlash bo‘limi (A.Jabbarova), tuman Sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi bo‘limi (Y.Usmonov), O‘zbekiston mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi v.v.b (E.Urishboyev)lar fuqarolarning huquqiy va sanitariya-ekologik savodxonligini oshirishga qaratilgan tushuntirish ishlarini tashkil etsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Sanitar qoidalari va me’yorlariga asosan hududlar bo‘yicha o‘rnatilgan me’yorlardan iste’molchining faoliyat turidan, joylashuvidan va xizmatidan foydalanish usulidan kelib chiqib iste’molchi tomonidan QSMCh (qattiq, suyuq maishiy chiqindilar) yillik to‘lash hajmi va QQS (qo‘shimcha qiymat solig‘i) xizmat haqqi so‘mda, 1-ilovaga muvofiq belgilansin.

4. Tuman hokimining axborot xizmati (lavozimiga ko‘ra) ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi va ekologiya masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi (A.Ergashev), ijrosi tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Uzoqov) va tuman Soliq inspeksiyasi boshlig‘i v.v.b (M.Quvatov) hamda tuman Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i (F.Amirov)larning zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan, 3 oydan so‘ng kuchga kiradi.

**Kengash raisi** **KARIMOV BOTIR NARINOVICH**

Xalq deputatlari Forish tumani
Kengashining
2026-yil 13-maydagi
VII-21-48-3-53-K/26 -son qaroriga
1-ilova

**Forish tuman obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha to‘lov tariflarini tasdiqlash to‘g‘risida**
**TARIFLARI**

*so‘mda*

| **Xizmat ko‘rsatiladigan shaxslar** | **Tip, marka, artikul yoki model raqami** | **O‘lchov birligi** | **Tarif miqdori (so‘m)** |
|---|---|---|---|
| Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning qattiq maishiy chiqindilarni markaziy chiqindi saqlash obyektiga olib borib joylashtirish (QQS bilan) | **QSMCH** | **1 m3 (kub)** | **60 000 so‘m** |